



SAMARALI O'QITISHNING QIZIQTIRUVCHI VA INTERFAOL
USULLARI HAMDA ULARDAN FOYDALANISH

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna

*Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: mamatova.zilolakhon@gmail.com

Xabibullayeva Mohinurbonu is'hoqjon qizi

*Farg'ona Davlat Universiteti
Amaliy matematika yo'nalishi 4-kurs*

22-11-guruh talabasi

E-mail: is.hoqjonovna2004@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda qiziqtiruvchi va interfaol o'qitish metodlarining o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda o'quvchilarning faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishda "aqliy hujum", "rol o'ynash", "keys-stadi", "klaster" kabi metodlarning samaradorligi yoritilgan. Interfaol metodlar o'quvchi markazli ta'limni yo'lga qo'yishda muhim omil sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: samarali o'qitish, interfaol metod, qiziqarli o'qitish, innovatsion texnologiya, motivatsiya, ta'lim sifati.

Annotation: This article analyzes the role of engaging and interactive teaching methods in enhancing the effectiveness of the educational process. The study highlights the efficiency of methods such as "brainstorming," "role-playing," "case study," and "cluster" in developing students' activity, independent thinking skills, and creative approach. Interactive methods are considered an important factor in implementing learner-centered education.

Keywords: effective teaching, interactive method, engaging learning, innovative technology, motivation, quality of education.



Аннотация: В статье анализируется роль интересных и интерактивных методов обучения в повышении эффективности образовательного процесса. Подчеркивается эффективность таких методов, как «мозговой штурм», «ролевая игра», «кейс-стади», «кластер», в развитии активности, самостоятельности мышления и творческого подхода учащихся. Интерактивные методы рассматриваются как важный фактор в формировании личностно-ориентированного образования.

Ключевые слова: эффективное обучение, интерактивный метод, интересное обучение, инновационные технологии, мотивация, качество образования.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimida sifatli o'qitish va o'quvchilarning bilim darajasini oshirish eng muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy pedagogika talablari o'qituvchidan nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodkorlikni shakllantirishni talab etadi.

An'anaviy darslarda o'quvchi asosan tinglovchi rolda bo'lib, o'rganilgan bilimlarni passiv tarzda qabul qiladi. Bu holat o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Shu sababli, interfaol va qiziqarli metodlar o'quv jarayoniga keng joriy etilmoqda. Ular orqali ta'lim mazmuni yanada jonlanadi, o'quvchilar esa o'z fikrlarini erkin ifoda etish, muammoni mustaqil hal etish va hamkorlikda ishlashni o'rganadilar.

Maqolaning maqsadi — samarali o'qitish jarayonida qiziqarli va interfaol usullarning ahamiyatini aniqlash hamda ularning amaliy natijalarini tahlil qilishdan iborat.

Metodologik asoslar

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga doir farmon va qarorlari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hamda zamonaviy pedagogika nazariyalari tashkil etadi.

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:



- ✚ Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi – bunda o'quvchi ta'lim jarayonining markazida bo'lib, u faol ishtirokchi hisoblanadi;
- ✚ Konstruktivizm nazariyasi – bilim o'quvchi tomonidan faol o'zlashtiriladi va uning shaxsiy tajribasiga asoslanadi;
- ✚ Faol o'qitish modeli – darsda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interfaol muloqot amalga oshadi;
- ✚ Kommunikativ yondashuv – o'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon etish va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.



Mazkur metodologik asoslar o'qitish jarayonida interfaol usullarni samarali qo'llash imkonini beradi va o'quvchilarning o'zlashtirish sifatini oshiradi.

Tajriba: Ikki "A" va "B" sinflar olindi "A" sinfga an'anaviy, "B" sinfga interfaol usullarda bir xil mavzuda dars o'tkazilib, ularning samaradorlikdagi farqini tahlil qilish.

Tajriba sharoiti: Tadqiqot doirasida sinflarda ("A" sinfdan 21 nafar o'quvchi "B" sinfdan 22 nafar o'quvchi) bilan dars o'tildi. Darslar bir xil mavzular bo'yicha tashkil etildi, faqat o'qitish yondashuvi farqli bo'ldi.

Debat metodi — bu o'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha fikr bildirish, himoya qilish va mantiqiy dalillar bilan asoslash orqali tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi interfaol o'qitish usulidir.

debat metodini amalda qo'llaymiz: o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib formulalarni yodlash kerakmi yoki tushunish yetarli? degan savolni o'rta tashlaymiz.




Har bir darsdan so'ng o'quvchilarning: darsdagi faolligi, ishtiroki, bilimni




o'zlashtirish darajasi, motivatsiya va qiziqish ko'rsatkichi maxsus so'rovnoma va kuzatuv jadvallari orqali baholandi.

An'anaviy va interfaol metodlar taqqoslanishi:



Tadqiqot metodlari



Eksperiment davomida “Aqliy hujum”, “Debat”, “Klaster”, “Rol o‘yinlari”, “Nilufar guli” va “Baliq suyagi” metodlari qo‘llanildi. O‘quvchilarning ishtirok darajasi, darsga qiziqishi va bilimni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

4. Natijalar tahlili

- ✱ Interfaol metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faollik darajasi o‘rtacha 24–25% ga yuqori bo‘lgan.
- ✱ O‘quvchilar darsga qiziqish bildirgan, dars jarayonida ko‘proq savol bergan va fikr bildirgan.
- ✱ An‘anaviy usulda darslar ko‘proq axborot uzatishga, interfaol usullarda esa faol o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan
- ✱ Bu natijalar interfaol metodlarning o‘qitish samaradorligini oshirishdagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi.

5. Muhokama: Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol o‘qitish metodlari o‘quvchilarda o‘z fikrini erkin ifoda etish, ijodiy yondashish va mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Aqliy hujum” o‘quvchilarni tezkor fikrlashga o‘rgatsa, “Rol o‘ynash” usuli ularning muloqot madaniyatini rivojlantiradi. “Klaster”, “Nilufar guli” va “Baliq suyagi” metodlari esa muammoni tizimli tahlil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, interfaol o‘qitishdan samarali



foydalanish uchun o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, texnik vositalarning mavjudligi va vaqtni to'g'ri rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Samarali o'qitishning qiziqarli va interfaol usullaridan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Ular o'quvchilarning bilishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, ta'lim jarayonini jonlantiradi. Kelgusida interfaol metodlarni raqamli ta'lim platformalari bilan uyg'unlashtirish, onlayn ta'limda qo'llash va ularning samaradorligini empirik tadqiq etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.* — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Xodjayev B., Xo'jayev N. *Pedagogika va psixologiya asoslari.* — Toshkent: TDPU, 2021.
4. Jalolov J. *Zamonaviy ta'lim metodlari.* — Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2022.
5. Karimova Z. *Interfaol ta'lim texnologiyalari va ularni qo'llash usullari.* — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.